UDK: 811.512.1'373.2

QADIMGI UYG‘UR TILIDAGI “MAITRISIMIT NOM BITIG” ASARI TEONIMLARINING TARIXIY-LISONIY TAHLILI

Raximova Norjongul Mahsud qizi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch
davlat universiteti
tayanch doktoranti, UrIU o‘qituvchisi
raximovanorjongul@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23567897

Annotatsiya. Mazkur maqolada qadimgi uyg‘ur buddaviy adabiyotining ilk yodgorliklaridan biri – “Maitrisimit nom bitig” asarining Sengim nusxasida qo‘llangan teonimlar tarixiy-lisoniy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda tengri, burxan, tengrilar tengrisi burxan, mayitri burxan, qut tengrisi, kün tengri kabi birliklar hamda zardushtiylik va hinduiylik panteonidan o‘zlashgan azrua, hormuzta, vishnu, maheshvari teonimlari semantik, struktur va genetik jihatdan tasniflanadi. Tahlil natijasida qadimgi turkiy tengri leksemasining buddaviy muhitda semantik torayishga uchragani, ko‘p komponentli teonimlarning sanskrit birikmalaridan kalka yo‘li bilan shakllangani hamda teonimlarning bir diniy tizimdan ikkinchisiga ko‘chishi (transonomizatsiya) asoslab beriladi. Olingan natijalar o‘zbek tili teonimiyasining islomgacha bo‘lgan qatlamini o‘rganishda nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: teonim, teonimiya, qadimgi uyg‘ur tili, Maitrisimit nom bitig, tengri, burkan, kalka, transonomizatsiya, buddaviylik, teoforik antroponim.

ИСТОРИКО-ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕОНИМОВ ДРЕВНЕУЙГУРСКОГО ПАМЯТНИКА «MAITRISIMIT NOM BITIG»

Аннотация. В статье с историко-лингвистической точки зрения анализируются теонимы, употреблённые в сенгимской рукописи «Maitrisimit nom bitig» – одного из ранних памятников древнеуйгурской буддийской литературы. Единицы tengri, burkan, tengri tengrisi burkan, maitri burkan, kut tengrisi, kün tengri, а также заимствованные из зороастрийского и индуистского пантеонов теонимы azrua, hormuzta, vişnu, m(a)heşv(a)ri классифицируются по семантическому, структурному и генетическому признакам. Обосновывается сужение значения древнетюркской лексемы tengri в буддийской среде, калькирование многокомпонентных теонимов с санскрита и перенос теонимов из одной религиозной системы в другую (трансонимизация).

Ключевые слова: теоним, теонимия, древнеуйгурский язык, Maitrisimit nom bitig, tengri, burkan, калька, трансонимизация, буддизм, теофорный антропоним.

A HISTORICAL-LINGUISTIC ANALYSIS OF THEONYMS IN THE OLD UYGHUR "MAITRISIMIT NOM BITIG"

Abstract. The article provides a historical-linguistic analysis of the theonyms found in the Sengim manuscript of Maitrisimit nom bitig, one of the earliest monuments of Old Uyghur Buddhist literature. The units tengri, burkan, tengri tengrisi burkan, maitri burkan, kut tengrisi and kün tengri, together with azrua, hormuzta, vişnu and m(a)heşv(a)ri borrowed from the Zoroastrian and Hindu pantheons, are classified on semantic, structural and genetic grounds. The study demonstrates the semantic narrowing of Old Turkic tengri in the Buddhist milieu, the calquing of multi-component theonyms from Sanskrit, and the transfer of theonyms from one religious system to another (transonymization).

Keywords: theonym, theonymy, Old Uyghur, Maitrisimit nom bitig, tengri, burkan, calque, transonymization, Buddhism, theophoric anthroponym.

KIRISH

Teonimlar onomastik tizimning alohida qatlami sifatida xalqning diniy dunyoqarashi, mifologik tasavvurlari va madaniy aloqalarini o‘zida aks ettiradi. Ilohiy mavjudotlar nomlari jamiyatning eng muqaddas tushunchalari bilan bog‘liq bo‘lgani uchun ular til tarixida uzoq saqlanadi, biroq diniy e’tiqod almashgan davrlarda shakl, ma’no va maqom jihatidan jiddiy o‘zgarishlarga uchraydi. Shu bois teonimlarni tarixiy-lisoniy jihatdan o‘rganish tilning leksik-semantik taraqqiyotini, uning boshqa tillar bilan aloqalarini va xalq ma’naviy madaniyatining bosqichlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek tili teonimiyasi bir necha tarixiy qatlamdan tarkib topgan: qadimgi turkiy diniy-mifologik qatlam, zardushtiylik bilan bog‘liq qatlam, buddaviylik va moniylik qatlami hamda islomiy qatlam. Ushbu qatlamlardan islomgacha bo‘lgan davrga oid teonimlarning yozma dalillari nisbatan kam bo‘lib, ular asosan turk-runik bitiglari va qadimgi uyg‘ur yozma yodgorliklarida saqlangan. Ayniqsa, Turfon vohasidan topilgan buddaviy va moniy uyg‘ur matnlari turkiy xalqlarning yangi diniy tizimlar bilan aloqasi natijasida teonimiyada yuz bergan o‘zgarishlarni bevosita kuzatish imkonini beradi.

“Maitrisimit nom bitigi” buddaviy uyg‘ur adabiyotining eng hajmli va katta qismi o‘qilishi mumkin bo‘lgan ilk asarlaridan biridir. Asar Maytreya – kelajakda dunyoga kelishi kutilayotgan bodisattvaning hayoti, Tushita jannatidan yerga tushishi va Buddalik maqomiga erishishi haqida hikoya qiladi. Toxar tilidan turkiy tilga o‘girilgan ikki matndan biri bo‘lgan mazkur asar uyg‘urlarning tarjimachilik faoliyatini va ular orasida Maytreya e’tiqodining ta’sirini ko‘rsatishi jihatidan alohida ahamiyatga ega [2; 1]. Asarda qadimgi turkiy, buddaviy, zardushtiy va hinduiy teonimlarning bir matn doirasida yonma-yon qo‘llanishi uni teonimik tadqiqot uchun noyob manbaga aylantiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi “Maitrisimit nom bitigi” asarining Sengim nusxasida qo‘llangan teonimlarni aniqlash, ularni semantik, struktur va genetik jihatdan tasniflash hamda o‘zbek tili teonimiyasi tarixidagi o‘rnini belgilashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: asar teonimlarining diniy qatlamlarga ko‘ra tarkibini aniqlash; tengri leksemasining buddaviy kontekstdagi semantik o‘zgarishini ochib berish; ko‘p komponentli teonimlarning shakllanish yo‘llarini aniqlash; teonimlarning bir diniy tizimdan ikkinchisiga ko‘chish holatlarini tahlil qilish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Teonimlarni onomastikaning mustaqil bo‘limi sifatida o‘rganish an’anasi rus onomastika maktabida shakllangan. A.V.Superanskaya atoqli otlar nazariyasiga bag‘ishlangan asarida ilohlar nomlarini onomastik kategoriyalardan biri sifatida ajratgan [20]. N.V.Podolskaya esa teonimni “har qanday iloh, ma’bud nomi” sifatida ta’riflab, teonimiya atamasini onomastik terminologiyaga kiritgan [19]. Ushbu nazariy asoslar keyingi davr turkologiyasida, jumladan, o‘zbek tilshunosligida teonimlarni tadqiq etishda tayanch bo‘lib xizmat qilmoqda.

“Maitrisimit nom bitig” asarining o‘rganilish tarixi XX asr boshlaridan boshlanadi. Asarni topgan A. fon Le Kok uni IX–X asrlarga, A. fon Gabain va O. Pritsak esa IX asrga oid deb hisoblagan; asarning faksimile nashri A. fon Gabain tomonidan amalga oshirilgan [4]. Sengim nusxasining transliteratsiyasi, nemis tiliga tarjimasi, izohlari va lug‘at-ko‘rsatkichi Sh.Tekin tomonidan nashr etilgan bo‘lib [15], bu nashr hozirgacha asar tadqiqotlari uchun asosiy manba hisoblanadi. Sh.Tekin asarni VIII asrga, J.P.Laut esa IX asr o‘rtalariga oid deb baholagan [2; 22]. F.Ag‘ja qadimgi uyg‘ur matnlarini fonetik va morfologik xususiyatlariga ko‘ra sanalashtirgan tadqiqotida “asar 9 asr so‘nggida yozilgan” degan xulosaga kelgan [2; 22].

Asarning tili maxsus o‘rganilgan tadqiqotlar orasida J.P.Lautning ilk turkiy buddaviylik va uning yodgorliklariga bag‘ishlangan monografiyasi [9] hamda A.Bashning Sengim nusxasining fonetik va morfologik xususiyatlarini tahlil qilgan dissertatsiyasi [2] alohida o‘rin tutadi. Qadimgi uyg‘ur buddaviy va moniy matnlaridagi diniy terminologiya H.Tokyurek tomonidan tadqiq qilingan [16]. Biroq mavjud tadqiqotlarda asar teonimlari yaxlit onomastik tizim sifatida, ularning diniy qatlamlari, tuzilishi va kelib chiqishi nuqtai nazaridan maxsus tahlil qilinmagan. Mazkur maqola ana shu bo‘shliqni qisman to‘ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot uchun material sifatida “Maitrisimit nom bitigi” asarining Sengim nusxasidan olingan matn parchalari xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida tavsifiy, qiyosiy-tarixiy, etimologik va komponent tahlil metodlaridan foydalanildi. Teonimlar semantik (anglatgan ilohiy tushunchasiga ko‘ra), struktur (komponentlar soni va tuzilishiga ko‘ra), genetik (kelib chiqishi va shakllanish yo‘liga ko‘ra) hamda diniy (mansub bo‘lgan diniy tizimiga ko‘ra) asoslarda tasniflandi. O‘zlashma birliklarning shakllanishini izohlashda L.Yohansonning kod nusxalash (code-copying) modeliga tayanildi [6].

TAHLIL VA NATIJALAR

Tengri teonimi: qadimgi turkiy qatlamdan buddaviy kontekstga

Tengri qadimgi turkiy teonimiyaning markaziy birligi bo‘lib, turk-runik bitiglarida Osmon ilohini anglatadi va ko‘pincha yėr so‘zi bilan juftlik hosil qiladi. Bilga xoqon bitigidagi üze teŋri asra yėr yarlıkadok üçün (BK K 10-11) iborasini H.Shirin quyidagicha talqin qilgan: “Tepada ko‘k tangri, pastda yer tangrisi aytgani uchun” [14; 80], [2; 79]. Mazkur talqin teŋri va yėr leksemalarining ushbu kontekstda kosmik ilohlar juftligini ifodalaganini ko‘rsatadi. Demak, runik yodgorliklar davrida tengri oliy, yagona hokimiyat egasi bo‘lgan Osmon ilohining nomi sifatida qo‘llangan.

Buddaviy “Maitrisimit”da esa tengri leksemasining ma’no doirasi sezilarli darajada o‘zgaradi. Bu yerda u ko‘pincha ko‘plik shaklida kelib, sanskritcha deva, ya’ni Buddadan quyi turuvchi ko‘p sonli samoviy mavjudotlarni bildiradi. Asar muqaddimasida Buddaning hayot yo‘li bayon qilinar ekan, uning “din g‘ildiragini aylantirib” sakson ming tengrini qutqargani aytiladi:

nomlug tilgen tevirip bėş pancaki-i toyın-larag sekiz tümen t(e)ngri-lerig kutgarmışın – “din tekerleğini çevirip beş rahibi ve seksen bin tanrıyı kurtardığını” (1r16–v4) [2; 24].

Ushbu misolda tengrilar qutqaruvchi sub’ekt emas, balki Budda tomonidan qutqariluvchi obyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holat buddaviy kosmologiyada devalarning ham samsara – tug‘ilish va o‘lim davrasidan to‘liq xalos bo‘lmaganligi bilan izohlanadi.

Shu bilan birga tengri leksemasi buddaviy matnda “ilohiy, yuksak, muqaddas” ma’nosidagi sifatlovchi sifatida ham qo‘llanadi. Masalan, muqaddimadagi bo t(e)ngri burkan-nıng birikmasi A.Bash tarjimasida “Yüce Burhan’ın” deb berilgan [2; 23–24]. Bu holatda tengri mustaqil teonim emas, balki burkan teonimini ulug‘lovchi epitetdir. Xuddi shu ma’no t(e)ngridem shaklida ham kuzatiladi; u hukmdorga nisbatan qo‘llanib, uning ilohiy kuch-qudratiga ishora qiladi: buyan küçinte t(e)ngridem kutı küçi çok yalınları aşılmakı bolzun (1v22-27) [2; 84]. Matnda tengri nur va yorug‘lik semalari bilan birga ham keladi: çeçek yapargakı teg y(a)ruk yaltır(ı)g t(e)ngri kelip “gul yaprog‘idek yorug‘, porloq tengri kelib” (119r2) [2; 71].

Fonetik jihatdan tengri qadimgi uyg‘ur tilida metatezaga uchragan so‘zlar qatorida qayd etilgan [1; 182], [2; 69], uyg‘ur yozuvida esa tnkry tarzida aks etgan. Umuman olganda, tengri teonimi buddaviy muhitda semantik torayishga uchragan: u oliy Osmon ilohi ma’nosidan ko‘p sonli samoviy mavjudotlar (deva) ma’nosiga o‘tgan, oliy ilohiy maqom esa burkan teonimiga ko‘chgan. Biroq uning “ilohiy, yuksak” degan sifatlovchi ma’nosi saqlanib, ko‘p komponentli teonimlar tarkibida faol qo‘llangan.

Burkan teonimi va ko‘p komponentli birikmalarning shakllanishi

Buddaviy matnda oliy ilohiy maqom burkan (Budda) teonimiga tegishli bo‘lib, u matnda bir komponentli shaklda ham, turli komponentlar bilan kengaygan holda ham qo‘llanadi. Ko‘p komponentli shakllar orasida eng muhimi tengri tengrisi burkan birikmasidir. A.Bash ushbu birikmaning kelib chiqishini L.Yohansonning kod nusxalash modeli asosida quyidagicha izohlaydi:

“Eski Uygur Türkçesiyle yazılmış Budist metinlerde sıkça geçen tengri tengrisi burkan ‘Tanrılar Tanrısı Burhan, yüce Burhan’ birleşimi Sanskrit devá-tâ dev-á buddha birleşiminden yapılmış tam bir kopyadır” [2; 48].

Muallif sanskritcha devá so‘zi uchun A.Makdonell lug‘atidagi “heavenly, divine; celestial, deity, god, divinity” ma’nolarini keltirib, devá-tâ dev-á buddha birikmasining semantik muqobili aynan tengri tengrisi burkan ekanini ta’kidlaydi [10], [2; 48]. L.Yohanson modeliga ko‘ra, nusxalash umumiy (global) va tanlangan (selective) turlarga bo‘linadi; tanlangan nusxalashda asl birlik bilan nusxa o‘rtasida to‘liq semantik moslik ta’minlansa, “to‘liq tarjima so‘z” (tam çeviri kelime), moslik kamaysa, “erkin tarjima so‘z” (serbest çeviri kelime) hosil bo‘ladi [6; 28–37], [2; 48]. Shunga ko‘ra, tengri tengrisi burkan sanskrit birikmasining to‘liq kalkasi bo‘lib, uning har bir komponenti turkiy yoki avvaldan o‘zlashgan so‘z bilan

almashtirilgan. Bu dalil ko‘p komponentli teonimlarning bir qismi genetik jihatdan kalka yo‘li bilan shakllanganini ko‘rsatadi.

Shu o‘rinda muhim bir jihatga e’tibor qaratish lozim. A.Bashning ta’kidlashicha, “Esasen Uygurlar, orijinal olarak Sanskrit olan ödünçlemelerin çoğunu Sanskrit asıllarından değil, Soğdca veya daha yaygın olarak Toharcadaki şekilleriyle almışlardır” [2; 48]. Demak, buddaviy teonimlarning qadimgi uyg‘ur tiliga kirishida so‘g‘d va toxar tillari vositachi bo‘lgan. Bunga br(a)hmalok “Brahma ülkesi” (< sanskr. brahmaloka) teotoponimi misol bo‘la oladi [2; 48].

Matnda tengri tengrisi burkan teonimi turli sintaktik qurilmalar tarkibida keladi:

edgülük dıntarlar ara t(e)ngr-i t(e)ngrisi burkan-ta yigrek yok erür – “Mükemmel rahipler arasında Yüce Burhan’dan üstünü yoktur” (58v6-10) [2; 27];

alku adada kutgarguçı tengri tengrisi burkan (16r9) [2; 75];

bo muntag türlüg öngre kisre işidmedök t(e)ngri t(e)ngrisi burkan-nıng edgü atın küsin işidip (13r22-24) [2; 79].

Ikkinchi misolda teonim alku adada kutgarguçı “barcha xavf-xatardan qutqaruvchi” sifatdosh oboroti bilan kengayib, Buddaning najotkorlik vazifasini ifodalaydi. Uchinchi misoldagi edgü atın küsin “ezgu nomi va shuhratini” iborasi esa ilohiy nomning o‘zi muqaddas va eshitilishi savob keltiruvchi hodisa sifatida idrok etilganini ko‘rsatadi. Bu holat teonimlarning sakral funksiyasini yaqqol namoyon etadi.

Burkan teonimi apellyativ birikmalar tarkibida ham faol qo‘llanadi. Burkan kut “Buddalik maqomi” birikmasi A.Bash tarjimasida “Burhan kutu” yoki “Burhan talihi” deb berilgan: ulaşılması güç Burhan kutuna ulaştığını [2; 24]; burkan kutın bulu y(a)rlıkadaçı – “Burhan talihini haşmetle bulacak” [2; 85]. Burkan şazını birikmasi esa “Burhan şeriatı”, ya’ni buddaviy ta’limot ma’nosini bildiradi [2; 21]. Bu birikmalarda qadimgi turkiy kut va sanskritcha śāsana so‘zidan o‘zlashgan şazın leksemalari teonim bilan birikib, yangi diniy atamalar hosil qilgan.

Maitri burkan teonimi

Asarning bosh qahramoni Maytreya ham burkan komponenti bilan nomlanadi. Bu teonim sanskritcha maitrī “iyilik” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, pali tilida metteyya shaklida uchraydi [3; 292], [2; 10]. Uning turli tillardagi muqobillari quyidagicha qayd etilgan: “Pal. Metteya; Tib. Byams pa; Mo. Mayidari; Çin. Mile; Kor. Mirŭk; Jpn. Miroku ve Cishi” [2; 16]. Ushbu qator teonimning buddaviylik tarqalgan butun hududda keng ma’lum bo‘lganini va har bir tilda o‘ziga xos fonetik moslashuvga uchraganini ko‘rsatadi.

Maytreya buddaviylikda Shakyamuni Buddaning vorisi sifatida kelajakda insoniyatni qutqarish uchun yerga tushishi kutilayotgan bodisattva hisoblanadi; tadqiqotchilar uning obraziga “masihlik” urg‘usini beradi [2; 17]. Y.Kasai Maytreya e’tiqodining rivojlanishida uch bosqichni ajratadi: “İlk ve en eski aşamada Maitreya, Śākyamuni Buda’nın çağdaşı olarak tasvir edilmiş ve gelecekteki Budalığının kehanetini Śākyamuni’den almıştır. İkinci ve üçüncü aşamada ise Maitreya, hâlihazırda gelecekteki Buda olarak tasvir edilmiştir” [7; 67], [2; 16].

Struktur jihatdan Maytreya nomi asarda bir necha shaklda keladi: maitri burkan (ikki komponentli), bilge maitri burkan (uch komponentli) va tükel bilge maitri burkan (to‘rt komponentli). Masalan: kim tamulug etözin baru kelip tükel bilge maitri burkan körgeli boltuŋuzlar – “Cehennemlik vücutlarınız ile gelip mükemmel bilge Maitri Burkan’ı görebildiniz” (172v21-23) [2; 91]; anta ötrü tükel bilge maitri burkan ėdiz yüksek orun üze olurup – “Bundan dolayı Bilge Maitri Burkan yüksek bir yere oturup” (171r4-10) [2; 94]. Bu

teonimlarda tükel “komil, mukammal” va bilge “donishmand” sifatlovchilari ilohiy zotning asosiy fazilatlari – mukammallik va donolikni ifodalaydi. Bunday sifatlovchi komponentlar keyingi davrlarda islomiy teonimiyadagi sifatiy ismlarning vazifasiga yaqin turadi.

Qut tengrisi va kün tengri birikmalari

Buddaviy matnda qadimgi turkiy diniy-mifologik tasavvurlarning izlari kut tengrisi va kün tengri birikmalarida ham saqlangan. Qut tengrisi “saodat ilohi” qadimgi turkiy qut tushunchasining ilohiylashtirilgan shakli bo‘lib, matnda o‘xshatish vositasi sifatida qo‘llanadi. Maytreyaning otasi Brahmayu quyidagicha ta’riflanadi:

közünür kut t(e)ngri-singe üleşi brhmayu atl(ı)g bramantar iligtin – “görünür saadet ilahesine benzeyen Brahmayu adlı Brahman hükümdarından” (3r29-31) [2; 85].

Muqaddimada esa asarni yozdirganlarning onasi xuddi shu teonim bilan ulug‘lanadi: közünü turur-kut t(e)ngrisi teg ögümüz-kün silig kunçuy – “yaşamakta olan saadet ilahi gibi olan annemiz Kün Silig Hanım’a” [2; 21]. Ikkala misolda ham kut tengrisi teonimi insonni ulug‘lash, uning fazilatlarini ilohiy darajaga ko‘tarish uchun xizmat qilgan. Bu holat qadimgi turkiy qut tushunchasining buddaviy muhitda ham o‘z sakral mazmunini yo‘qotmaganini ko‘rsatadi.

Kün tengri birikmasi esa matnda to‘g‘ridan-to‘g‘ri “Quyosh” ma’nosida keladi: alku işleyü tükedim(i)z yine yme kün tengri uyakgalır – “Bütün işlerimizi bitirdik. Güneş tekrar batmak üzere” (12v1-3) [2; 94]. Mazkur misolda qadimgi kosmik teonim desakralizatsiyaga uchrab, oddiy astronomik nomga aylangani kuzatiladi. Shu bilan birga tengri komponentining saqlanib qolishi Quyoshning qadimgi turkiylar tasavvurida ilohiy mavjudot sifatida idrok etilganining til darajasidagi izi hisoblanadi.

XULOSA

“Maitrisimit nom bitig” asari teonimlarining tarixiy-lisoniy tahlili quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi.

Birinchidan, asar teonimlari kamida besh diniy qatlamdan iborat: qadimgi turkiy (tengri, kut tengrisi, kün tengri), buddaviy (burkan, maitri burkan, tengri tengrisi burkan), zardushtiy (azrua, hormuzta), hinduiy (vişnu, m(a)heşv(a)ri) va moniylik bilan bog‘liq (mani burkan) teonimlar. Bu holat IX asr uyg‘ur jamiyatidagi diniy-madaniy rang-baranglikning til darajasidagi aksidir.

Ikkinchidan, tengri leksemasi buddaviy muhitda semantik torayishga uchragan: u oliy Osmon ilohi ma’nosidan sanskritcha deva, ya’ni ko‘p sonli samoviy mavjudotlar ma’nosiga o‘tgan, oliy ilohiy maqom esa burkan teonimiga ko‘chgan. Shu bilan birga tengri “ilohiy, yuksak” degan sifatlovchi ma’nosini saqlab, ko‘p komponentli teonimlar tarkibida faol qo‘llangan.

Uchinchidan, ko‘p komponentli teonimlarning bir qismi genetik jihatdan kalka yo‘li bilan shakllangan: tengri tengrisi burkan sanskritcha devá-tâ dev-á buddha birikmasining to‘liq kalkasidir. Buddaviy teonimlarning qadimgi uyg‘ur tiliga kirishida so‘g‘d va toxar tillari vositachi bo‘lgan.

Olingan natijalar o‘zbek tili teonimiyasining islomgacha bo‘lgan diniy-mifologik qatlamini tarixiy-lisoniy jihatdan yoritishda, turkiy tillar tarixiy leksikologiyasi va

onomastikasiga oid o‘quv kurslarida hamda teonimlar tarixiy-etimologik lug‘atini tuzishda foydalanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ağca F. Eski Uygur Türkçesiyle yazılmış eserlerin ses ve şekil özelliklerine göre tarihlendirilmesi: Doktora tezi. – Ankara: Hacettepe Üniversitesi, 2006.
2. Baş A. Eski Uygurca Maitrisimit Nom Bitig’in dili: Yüksek lisans tezi. – Eskişehir: Eskişehir Osmangazi Üniversitesi, 2020. – XIII, 116 s.
3. Eliade M. Dinsel inançlar ve düşünceler tarihi. Cilt II: Gotama Budha’dan Hıristiyanlığın doğuşuna / Çev. A. Berktay. – İstanbul: Alfa Yayınevi, 2017.
4. Gabain A. von. Maitrisimit: Faksimile der alttürkischen Version eines Werkes der buddhistischen Vaibhāṣika-Schule. II. – Berlin: Akademie-Verlag, 1961.
5. İzgi Ö. Çin elçisi Wang Yen-Te’nin Uygur seyahatnamesi. – Ankara: Türk Tarih Kurumu Basımevi, 1989.
6. Johanson L. Türkçe dil ilişkilerinde yapısal etkenler / Çev. N. Demir. – Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 2018. – 251 s.
7. Kasai Y. Der Ursprung des alttürkischen Maitreya-Kults // Die Erforschung des Tocharischen und die alttürkische Maitrisimit / Hrsg. Y. Kasai, A. Yakup, D. Durkin-Meisterernst. – Turnhout: Brepols, 2013. – S. 67–104. – (Silk Road Studies; XVII).
8. Kudara K. Eski Uygurların Budist kültürü / Çev. M. Elmalı // Türk Kültürü İncelemeleri Dergisi. – 2009. – Sayı 20. – S. 247–262.